

## YOSHLARDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

**Madatov Xabibulla Axmedovich**

Urganch davlat universiteti Kompyuter ilmlari kafedrasi mudiri,  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent:

E-mail: [habi1972@mail.ru](mailto:habi1972@mail.ru)

**Sattarova Sapura Beknazarovna**

Urganch davlat universiteti Kompyuter ilmlari  
kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: [sprsattarova@gmail.com](mailto:sprsattarova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lif-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oyasi asosida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublikada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 — 2020-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning 5 ta qarori qabul qilindi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi. Ushbu ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Insonlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun boshlang'ich maktab poydevor vazifasini o'taydi. Ushbu maqolada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantiirishning dolzarbliji va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik madaniyati, badiiy o'qish, adabiy ta'lif, janr, mutolaa, kutubxona, semantik mutolaa.

### АННОТАЦИЯ

На основе идеи Президента Республики Узбекистан о том, что «Новый Узбекистан начинается с порога школы, с системы образования», реализуются масштабные реформы. В частности, в целях укрепления правовой основы развития и поддержки культуры чтения в республике в 2017-2020 годах приняты 5 решений Президента и Правительства Республики Узбекистан, а также развитие культуры чтения было определено как приоритетное направление государственной политики. Реализация этих приоритетов возлагает большую ответственность на педагогов. Начальная школа служит фундаментом формирования культуры чтения у людей. В данной статье представлена информация о важности формирования культуры чтения у учащихся и о том, что необходимо сделать в этом направлении.

**Ключевые слова:** культура чтения, художественное чтение, библиотека, литературное образование, жанр, чтение, смысловое чтение.

## ABSTRACT

Based on the idea of the President of the Republic of Uzbekistan that "New Uzbekistan starts from the threshold of the school, from the educational system", large-scale reforms are being implemented. In particular, in order to strengthen the legal basis for the development and support of the reading culture in the Republic, 5 decisions of the President and the Government of the Republic of Uzbekistan were adopted in 2017-2020, and the development of the reading culture was defined as a priority direction of the state policy. The implementation of these priorities places great responsibility on pedagogues. Elementary school serves as a foundation for the formation of reading culture in people. This article provides information about the importance of forming a culture of reading in students and what needs to be done in this regard.

**Keywords:** reading culture, fiction reading, library, literary education, genre, reading, semantic reading.


## KIRISH

Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ayniqsa, intellektual rivojlanishida XXI asr katta o‘zgarishlarga boy davr bo‘lmoqda. Taraqqiyot o‘z ortidan ta’limni ergashtirib, o‘ziga yanada katta e’tibor talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, yoshlarda axborot texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida **kitobxonlikni** targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Mazkur, 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining to‘rtinchisi, ya’ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida **kitobxonlikni** keng targ‘ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Prezidentimizning turli nutq va ma’ruzalarida ta’kidlanganidek, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilanishi diqqatga sazovordir.

Bugun jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda ta’lim tizimi sohasida yosh avlodga zamonaviy ta’lim va tarbiya berish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim-tarbiya berish bilan birga, yoshlarni turli mafkuraviy tahdid va tajovuzlarga moyil bo‘limgan, ularga qarshi kuch topa oladigan, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, o‘ziga ishongan, mas’uliyatli va ilmlli shaxs etib tarbiyalash ta’lim tizimining asosiy vazifasidir.

Bu kabi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o‘quvchilar qalbi va ongiga ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini, ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan asriy an’analari, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini yanada chuqurroq singdirish lozim. Yoshlarning yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lib kamolga yetishishida **kitobxonlik madaniyatining** o‘rni benihoya kattadir.

**Kitob** – insonni buyuklik va komillik sari yetaklovchi vositadir. Kitob o‘qish orqali kishilarda axloq, mafkuraviy immunitet, keng dunyoqarash va boshqa ijobjiy fazilatlar shakllanadi. Kitob inson umrining so‘qmoqlarini yorituvchi o‘chmas nur, inson hayotiga mazmun-mohiyat baxsh etuvchi baxt manbai, har qanday vaziyatda ham bizga hamroh bo‘ladigan eng sodiq do‘stimizdir. Insonning ma’naviy kamolotini yuksaltirishda kitobdan kuchliroq narsa yo‘q. Kitob insonni yerdan osmonga ko‘taruvchi, ma’naviy quvvatini oshiradigan buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasini, ma’naviy-ma’rifiy olamini, ilmiy zaminini mustahkamlashga va kelajakni yorqin ko‘rsatishga qodir mash’aldir. Shu bois ham bobo va buvilarimiz azaldan kitobni qadrlab, undan ilm, odob sirlarini o‘rganishga chorlaganlar.



**Kitobxonlik madaniyati** – o‘zida psixologiya va pedagogika vazifalarini o‘zida mujassamlashtiradi, bolalar qalbini badiiy tadqiq qiladi, bolalikni san’at ko‘zgusida



butunligicha ko‘rsatadi, aniqrog‘i, badiiy izlanishlar orqali bolalarning ruhiy dunyosi va ijtimoiy-axloqiy shakllanishini takomillashtirishni ko‘rsatadi. Shu asosda fan va san’at o‘zaro bog‘langan va yaxlit san’at natijasiga aylanadi. Natijada bolalar adabiyoti pedagogika va psixologiyaning o‘ziga xos badiiy-axloqiy xronologiyasiga aylanadi. Bolalar adabiyotining bu xususiyati yozuvchi oldiga kitobxonlarning yosh xususiyatlari, mentaliteti, saviyasi, qiziqishlarini hisobga olgan holda ijodkorlik vazifasini qo‘yadi. Bu, o‘z navbatida, bolalar uchun yozilgan asarlarning yoshini aniqlashni talab qiladi. Yozuvchi o‘z asarini kim uchun yozayotganini oldindan bilishi kerak, — deb yozgan edi M. Gorkiy, — aks holda, uning kitobi o‘quvchisiz qoladi. Bolalar yozuvchilari o‘quvchilarning yoshiga jiddiy e’tibor berishlari kerak. Agar bu bajarilmasa, kitob "manzilsiz" bo‘lib qoladi va kattalar uchun ham, bolalar uchun ham keraksiz bo‘ladi. Bu talabni bajarishda pedagogika va psixologiya bolalar ijodkorlari uchun jiddiy dastur bo‘lishi mumkin, chunki bu fanlar bolalar va ularning ma’naviy dunyosi, tarbiyasi bilan bog‘liq. Demoqchimizki, har bir bolalar yozuvchisi o‘z asarini ma’lum bir yosh oralig‘i uchun “manzillab” yozishi kerak. Yozayotgan asarini kim o‘qiydi, bu asar - o‘quvchisining lug‘at boyligiga, yosh xususiyatlariga mos kelishini e’tiborga olishi lozim.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiy kitob haqida shunday deydi:"Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqqlikdan xoli hamrohdir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U



shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o‘z do‘sining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmeydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do‘sit ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "kitob aql qal’asidir".


Insonning kitob o‘qish madaniyati uning bolalik davridanoq shakllana boshlaydi. Ota-onalar farzandining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun unga kichik yoshligidanoq rasmlı ertaklarni o‘qib berishi, qo‘shiqlarni xirgoyi qilib berishi lozim. Ularning bu hatt-harakati orqali farzandida kitobga mehr hissi uyg‘onadi. Farzandi kattalashgani sayin uning yoshiga mos bo‘lgan kitobchalarni o‘qishini ta’minlashi va nazorat qilishi shart. Ya’ni farzandi o‘qigan kitoblari bo‘yicha savol-javob qilib, uning fikrlarini tinglashi kerak.

Bolalar uchun yozilgan barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o‘y-kechinmalari, orzu-istiklari, voqelikka estetik munosabati o‘z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Binobarin, xuddi shu xususiyatlarni o‘zida namoyon qila boshlagan o‘zbek bolalar adabiyoti XX asrning 20-30-yillarida shakllanib, umumadabiyotning alohida tarmog‘i sifatida maxsus yo‘nalish kasb etdi. Bunda A.Avloniy, H.H.Niyoziy, Shokir Sulaymon, G‘ayratiy, D.Oppoqova, G‘ulom Zafariy, Elbek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa’dulla, Hakim Nazir, Po‘lat Mo‘min kabi yozuvchi-shoirlar o‘zbek bolalar she’riyati va nasrini, dramaturgiyasi hamda publisistikasini shakl va mazmun, badiiylik va obrazlilik jihatdan barqarorlashuviga katta hissa qo‘shdilar.

Shuningdek xorijda R.W.Hunt,K.A.Konrad, M.K. Khribi, Badrul Sarwar, George Karypis, Joseph Konstan va John Riedl, Sushama Rajpurkar, MDHda N.A.Avdonina, E.B.Belina, K.L.Voronko, M.I.Vershinin, A.I.Zemskovlar va yaqin davrlarda O‘zbekistonda E.O.Oxunjonov, M.Jumaboyev, U.Karimovlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qisman elektron katalog yaratish masalalari bilan shug‘ullanishgan.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi N.Fozilov: “Bolalar adabiyoti,—nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi... Bolalar yozuvchilari o‘z asarlari bilan katta adabiyotga boshlovchi darg‘alar. Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e’zoztalab adabiyot... Bolaning ko‘ngli ham shunday. Uni sindirib bo‘lmaydi. Unga hamisha e’tibor darkor. Shundagina uning ko‘ngli to‘lib o‘sadi. U –mehrtalab. Shundagina u muhabbattingiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi”, deya ta’kidlagan

Bolalar yozuvchisi M. Jumaboyev bolalar adabiyoti va yoshlarning kitobxonligini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha asarlar yozgan. U bolalar adabiyotini o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi uch guruhga ajratadi(1-rasm) [3]



1-rasm

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish to‘g‘risida”gi PQ-3271-son[2] qarori asosida yurtimizning barcha ta’lim sohasida kitobxonlikni rivojlantirish asosida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Matnli axborotlarga asoslangan zamonaviy dunyoda, axborot oqimi tobora ortib bormoqda. Matnli axborotlarni o‘zlashtirish usullari o‘zgarib borayotgan bir sharoitda ham kitob o‘qish insoniyat uchun bilish va rivojlanishning universal vositasi bo‘lib kolmoqda. Turli xil matnlarni o‘qish madaniyati axborotning asosi sifatida qaraladi.

Har qanday jamiyatda kishilarning shaxsiy madaniyati, kasbiy va shaxsiy rivojlanishining asosiy sharti – rivojlanib borayotgan dunyo bilan hamnafas bo‘lgan holda u bilan muloqotini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimi – kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va o‘quvchilarning savodxonligini rivojlantirish muammosini hal etib, global ta’lim tajribasiga kirib borishga faol intilmoqda. Bugungi kunda maktab ta’limida asosiy e’tibor semantik mutolaa ko‘nikmalarini asos sifatida o‘zlashtirishga qaratilgan. Badiiy matnni mutolaa qilish va o‘zlashtirish yoshlarning kelajakda ilmli va komil shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maktab amaliyotida badiiy asarlarni o‘qish madaniyatini maqsadli shakllantirish o‘quvchilarga katta yordam beradi. Zamonaviy o‘quvchi nafaqat axborot texnologiyalari bilan ishlash savodxonligiga, balki ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida badiiy asarlarni mutolaa qilish va unga hayoti mobaynida amal qilish madaniyatiga ham ega bo‘lishi zarur. Chunki o‘quvchi nafaqat o‘qituvchilari sabog‘i orqali balki o‘zi mustaqil ravishda mutolaa qilgan kitoblari orqali hayotni estetik tushunadi, insonparvarlik va oliyjanob fazilatlar sohibi bo‘lib kamolga yetadi.

Boshlang‘ich maktab yoshi badiiy matnni o‘qish madaniyatini shakllantirish uchun eng qulay payt hisoblanadi. Bu jarayonni boshlang‘ich maktabda o‘qish

darsining birinchi mashg‘ulotidan boshlash kerak. Shu orqali har bir o‘quvchida tabiiy ravishda kitob o‘qish, uni sevish, e’zozlash va uning inson hayoti uchun muhim vosita ekanligini his qilish tuyg‘usi shakllana boradi.

Kitob o‘qish o‘quvchining nafaqat keyingi adabiy rivojlanishida, balki uning ezhulik va yovuzlik o‘rtasidagi farqni anglashida, insondagi go‘zallik, tabiat, san’at va hayot haqidagi boshqa tasavvurlarini shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga asosan , o‘tgan o‘n-o‘n besh yil davomidagi ilmiy-uslubiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik sohasida asosiy e’tibor uning ijtimoiy-pedagogik jihatlariga, shuningdek, ilmiy, o‘quv va boshqa turdagи matnlarni izohlash usullari va texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shu bilan birga, kichik maktab o‘quvchilarining adabiy rivojlanishi muammosi eng kam o‘rganilgan soha bo‘lib qolmoqda. Shu sababli yoshlarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kun pedagoglari oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Yoshlarda kitobxonlok madaniyatini rivojlantirish uchun birinchi navbatda quyidagi ushlarni qilgan ma’qul.

- maktabdagi adabiy ta’limining boshlang‘ich bosqichida badiiy matnni o‘qish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ta’minlovchi uslubiy shart-sharoitlarni aniqlash va tavsiflash;

- maxsus diagnostik test o‘tkazish orqali o‘quvchilarni o‘zlashtirish qobiliyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratish;

- har bir guruhdagi o‘quvchilarning intellektual salohiyatiga mos bo‘lgan kitoblar (ertak, hikoya, bolalar adabiyoti) ro‘yxatinini tuzib ularning ota-onalari bilan maslahatlashgan ish olib borish;

- Kichik yoshdagi o‘quvchilarda diagnostika testini o‘tkazish orqali ularning kitob o‘qish tezligini, o‘qigan asarini o‘zlashtirish qobiliyatini, og‘zaki nutqining rivojlanish ko‘rsatkichlari kabi bir qancha parametrlar orqali uzluksiz monitoring tizimini shakllantirib borish;

Bu yo‘sinda ish olib borish orqali o‘quvchilarning kitob o‘qish qobiliyatini bosqichma-bosqich oshirib borishga erishish mumkin. Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim tizimidagi fikr va g‘oyalarini qabul qiluvchi virtual tizim yaratish zarur. Chunki muammo ichida yurgan shaxs boshqalarga nisbatan ko‘proq tajribaga ega bo‘ladi. Muntazam ravishda zamonaviy boshlang‘ich tizimining maqsadli strategiyalari va yo‘riqnomalariga tuzatishlar kiritib borish zarur. Chunki zamonaviy axborot texnologiyalari va o‘qitish usullari kundan-kunga takomillashib bormoqda. O‘quvchilarning kelgusi faoliyati uchun boshlang‘ich mакtab davrida ularning fiziologik jihatlariga ham e’tibor qaratmoq lozim. ularning jismoniy sog‘lom bo‘lishi uchun har kuni ochiq havoda jismoniy mashqlar bajarishini tashkillashtirish, xotirasini kuchaytirish uchun esa har kuni yangi atamalrni yodlab borishini nazorat qilish zarur. Shuningdek ularni mehnatsevarlikka o‘rgatish ham boshlang‘ich mакtab davridanoq boshlanishi kerak. Badiiy asarni to‘liq idrok etish va kichik yoshdagi mакtab

o‘quvchilarining adabiy rivojlanishini ta’minlovchi samarali uslubiy vositalardan foydalanish yuqori natijalarga olib keladi. Har bir bosqich o‘quvchilari bilishi kerak bo‘lgan umumiyligi va terminologik[4] so‘zlar lug‘atini tuzish va ularni o‘quvchilarga o‘rgatib borish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshiradi. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining dars jarayoni va ularda badiiy o‘qish saviyasi oshirish uchun barcha zaruriy o‘quv-uslubiy va texnik materiallar bilan ta’minalash zarur.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA:

Har qanday soha vakillari uchun zarur bo‘lgan kitobxonlik madaniyati (xulq-atvor madaniyati, nutq madaniyati, sog‘lom turmush tarzi madaniyati va boshqalar) asoslarini shakllantirish – boshlang‘ich mакtab davrida shakllanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun badiiy matnni o‘qish va anglash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. Har bir kitobxon qaysi kitoblarni o‘qishi kerak? Bu savolga javob berish oson: “o‘ziga mos kitoblarni”. Lekin o‘quvchilarni yoshi va intellektual qobiliyatiga mos bo‘lgan darslik va o‘quv materiallarini tanlash [5,6], shuningdek o‘quvchilarga zamonaviy dasturlash tillarini o‘rgatish[7] dolzarb masalalardan biridir. O‘zbek tilida o‘quvchilar intellektual salohiyatiga mos bo‘lgan kitoblarning elektron katalogini ishlab chiqish metodikasi bo‘yicha tadqiqotlar ishlari deyarli qilinmagan.

Ta’lim tizimida yagona bo‘lgan, on-line tarzda faoliyat yurituvchi shunday bir tizim yaratish kerakki, har qanday kitobxon o‘zi uchun yoki ota-onalar farzandining yoshiga mos bo‘lgan kitoblar ro‘yxatini topa olishi kerak. Bu katalog doimiy ravishda yangilanib turishi kerak, ya’ni, har bir nashrdan chiqqan yangi kitob unga kiritilib borishi kerak. To‘g‘ri hech bir kitob muallifi o‘zining yangi asarini elektron faylini boshqalarga berishni istamaydi. Lekin shu yangi asarning tavsifi, qaysi auditoriya vakillari uchun yozilganligi va asarning boshqa xususiyatlarini elektron katalogga kiritilib borilsa shu asar haqida ko‘pchilik kitobxonlar ma’lumotga ega bo‘lib boradi. Yangi nashrdan chiqqan kitoblarning muqovasida yoki kirish qismida shu kitob qaysi yosh oralig‘idagi kitobxonlar uchun ekanligi yozilishi kerak. Bu elektorn katalogda kitoblar o‘quvchilarning yoshiga va intellectual qobiliyatiga mos bo‘lgan holda guruhlarga ajratilgan bo‘lishi kerak. Har qanday kitobxon o‘zi mutolaa qilishi kerak bo‘lgan kitoblar ro‘yxatini bu elektron katalogdan topa olishi kerak.

Atoqli bolalar adibi O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to‘xtalib shunday degan edi “Umrim davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichkintoylarning to‘g‘ri yo‘lni topib dunyoqarashini shakllantirish, ahloq-odobini yo‘lga solishda kitobdanda muhimroq narsa yo‘q ekan shuning uchun ham ota-onalarning birinchi vazifasi o‘z farzandida kitobga mehr uyg‘otish deb bilaman. Gohida fan-texnika tufayli adabiyotga e’tibor susayyapti degan gaplarni eshitib qolamiz. Menimcha, go‘zallikka ehtiyoj tuyg‘usi bor ekan, san’at asarlari ham o‘zining bahosini hech qachon yo‘qotmaydi. Shu bois kitobga ixlos bilan qaraydigan, uni zavq bilan o‘qiydiganlar soni ortib borayotganini ko‘rish quvonarlidir”. Inson kamoloti va bilimning manbai kitob bilan bog‘liqdir u insonni komillik sari yetaklaydi, kitob maslahatchi-yu sadoqatli hamroh, eng yaqin do‘sit va bebaho boylik hisoblanadi. Barcha asrlarda bo‘lgani kabi bugungi kunda xam yoshlarni

vatanga muhabbat yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda ayniqsa maktabgacha yoshdag'i bolalarni bilimlar olamiga olib kirishda, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda bolalar kitobxonligining o'rni katta hisoblanadi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, barcha sohalar kabi kitob o'qish madaniyati ham kunda-kunga takomillashib bormoqda. Ko'pchilik yoshlar zamonaviy usulda kitob o'qishni ma'qul ko'rishadi. Kimdir audio kitoblarni tinglaydi, boshqalar esa kompyuter yoki telefoni orqali kitob o'qishni ma'qul ko'radi. Xo'sh bunga sabab nimada?

Bugungi kunda kitob mahsulotlarini chop qilish yoki uni sotib olish uchun ko'pchilik yoshlarning mablag'i yetmaydi. Kitobni tushunish, uning ichidagi ma'lumotlarni to'laligicha o'zlashtirish va unga amal qilish uchun haqiqiy bosma kitoblarni mutolaa qilish samarali natijalar beradi. Chunki telefonda kitob o'qish paytida, kutilmagan qo'ng'iroq tufayli kitobxonning diqqati bo'linishi mumkin. Telefon yoki kompyuterdan uzoq vaqt foydalanish ko'z nerviga va uni ko'rish o'tkirligiga ta'sir qiladi. Mobil qurilmalar 300 МГц dan 3 ГГц. gacha chastotali nurlanish tarqatadi. Bu yurak ishi uchun ham o'ta salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ko'p farzandli ba'zi oilalar farzandlariga kitob, telefon yoki kompyuter sotib olib berishga qurbi yetmaydi. Xo'sh, bunday oilalarning farzandlari qanday qilib o'zi istagan kitoblarni mutolaa qilishi mumkin? Bu muammoni hal etish uchun esa, har bir mahallada, mакtabda, chekka qishloqlarda zamonaviy rusumdag'i kitob o'qish maskanlarini barpo etish zarur. Bu maskanlarni barcha kerakli jihozlar, Internet va kitoblar bilan ta'minlash kerak. U yerdan foydalanishni esa bepul qilish kerak. Yosh kitobxonlar uchun bunday imkoniyatlarni yaratish orqali – kitobxonlar sonini sezilarli oshirishga erishish mumkin. Bu esa jamiyatimizda ilmli, tarbiyali va keng dunyoqarashli fuqarolar ko'payishiga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida zamonaviy kutubxonalar juda ko'p. Jumladan Janubiy Koreya Milliy Smart kutubxonasi, Norvegiyada Vennesl, Niderlandiyadagi "Book Mountain and Library Quarter" kutubxonasi va boshqa kutubxonalar aholining barcha qatlamlari uchun sevimli kitob o'qish maskanlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida barcha xalqlarda kitob va kitobxonlik madaniyati ulug'lanadi. 23 aprel jahon madaniyati tarixida muhim sana hisoblanadi. 1995-yilda Parijda bo'lib o'tgan yirik xalqaro anjumanda YUNESKO jahon ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk va uzoq kutilgan tashabbus bilan chiqdi. Anjumanning barcha ishtirokchilari xalqaro tashkilotning 23 aprelni jahon adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk adiblar xotirasiga bag'ishlab "Xalqaro kitob va mualliflik huquqi kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi taklifini bir ovozdan ma'qulladi. Dunyo ahli nafaqat kitobni asrab-avaylash, balki kitob sanoatini rivojlantirish, yozuv sohasida nusxa ko'chirishning oldini olish, mualliflik huquqini himoya qilishga ham alohida e'tibor qaratmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, o'tmish, bugun va kelajak kitoblarda mujassamlangan. Qadim zamonlarda kitob jamiyat hayotida qanchalik muhim bo'lsa, hozir ham o'z

qadrini yo‘qotgani yo‘q. Shunday ekan, jamiyatimizning har bir fuqarosi kitobni sevishi, hurmat qilishi va farzandalarining kitob o‘qish madaniyatini rivojlantira borishi kerak. Ana o‘sandagina jannatmakon Vatanimiz— Mustaqil O‘zbekiston keljakda yanada gullab-yashnaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish –xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir (O‘zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruza) // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2017yil, 4 avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida” gi PQ-3271-son qarori
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti //O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent. – 2013
4. Sattarova S. B., Bekchanova F. X., Shermetov A. K. TERMINOLOGIK LUG‘AT YARATISH TEXNOLOGIYASI VA UNING TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 422-434.
5. Akhmedovich K. M., Beknazarovna S. S. METHODS OF CHECKING THE GIVEN LITERATURE ON THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF SCHOOLCHILDREN.
6. Madatov K., Matlatipov S., Aripov M. Uzbek text’s correspondence with the educational potential of pupils: a case study of the School corpus //arXiv preprint arXiv:2303.00465. – 2023.
7. Khodjinazarovna B. F., Kamaliddinovich S. A., Beknazarovna S. S. VISUALIZING THE SOLAR SYSTEM USING PYTHON AND ITS IMPORTANCE IN EDUCATION //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 6.
8. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
9. [www.Zyonet.uz](http://www.Zyonet.uz)
10. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
11. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)